XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI.....	850
Raxmonov Aziz Iskandarovich	
COST ANALYSIS IN FRUIT AND VEGETABLE PROCESSING PLANTS.....	855
Rahmatullayev Mirjalol Khatam ogli	
OLIY TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH TIJORAT SIRINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	861
Butayev Dilshod Eshbekovich	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ОБЛАЧНЫЕ БУХГАЛТЕРСКИЕ СИСТЕМЫ: НАДЁЖНОСТЬ ОТЧЁТНОСТИ И КИБЕРБЕЗОПАСНОСТЬ.....	867
Бозорова Озода Рахимовна	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANKLARNING CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI	872
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
XALQARO STANDARTLARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA AUDITORLAR VA KORXONALAR UCHUN AMALIY TAVSIYALAR.....	877
Ibragimov Azizbek Keldibek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	882
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH	888
Omanov Sanjar Qurbonazar o'g'li	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI SOLIQ IMTIYOZLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI.....	894
Usmonov Shavkatjon Shukurovich	
АДАПТАЦИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ В НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ	901
Абилов Эльман Худаверди оглы	
QURILISH SOHASIDA KORPORATIV IJTIMOIIY MAS'ULIYAT: XALQARO TAJRIBA VA QIYOSIY TAHLIL.....	906
Murotkosimov Shoxrux Abdisalimovich	
TADBIRKORNING KREDIT, FOIZ, SOLIQ TO'LOVLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI XUSUSIDA.....	914
Hakimov Odil Arziqulovich	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDI IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA KIRITILGAN INVESTITSIALARNI MOLIYALASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI	918
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KORXONALARDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	925
Xalilova Aziza Rustamovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	930
Uzakova Umida Ruziyevna	
INVESTITSIYA JALB QILISHNING HUDUDIIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIIY MAZMUNI.....	936
Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHIIYATINI OSHIRISHDA TURISTIK ZONALARNING AHAMIYATI	940
Umarova Mahliyo Yaxshiboy qizi	
HUDUD OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SANOATI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA SAMARADORLIGINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI.....	945
Xursanov Sherzod Ulaboyevich	
YUK TASHUVLARIDA LOGISTIK PROVAYDERLAR FAOLIYATINING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	951
Mannapova Feruza Faxriddin qizi	



MAMLAKAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	956
Mirzaraximova Aziza Azimdjanoyna	
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI RAQOBATCHILIK MUHITINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	963
Maxmudova Ferangis Raxmatillayevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT TARAQQIYOTINING HOLATI VA USTUVOR MAQSADLI KO'RSATKICHLARI	968
Saidova Madinaxon Hoshimjon qizi	
FERMER XO'JALIKLARINING O'ZBEKISTON AGRAR SEKTORIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	973
Islamova Dilnoza Isamidinova	
ZIYORAT TURIZMINING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	978
Uzaqov Jamshid Norboyevich	
TIJORAT BANKLARINING EMISSION OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	983
Shaymanov Mexriddin Ibragimovich	
ISLOM MOLIYASIDA MAJBURIYAT VA OMONAT MEXANIZMLARI: RAHN, VADIYA VA HAVALA.....	987
Sadikova Ra'no Abdullaevna	
FIRIBGARLIK BILAN BOG'LIQ AUDITORLIK TEKSHIRUVI RISKLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI	991
Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И ОЦЕНКА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ UZAUTO MOTORS.....	996
Шарилов К.А., Зайнутдинова У.Дж.	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA BANDLIK BILAN TA'MINLASHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA MUAMMOLAR TADQIQI.....	1005
Mirzayev Qulmamat Djonuzokovich, Saparov Murod Irgashovich	
YO'LOVCHI TASHISH XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1010
Alisher Kurambayev	
SUG'URTA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TAKAFUL SUG'URTASINING O'RNI VA IMKONIYATLARI.....	1014
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING JORIY HOLATI TAHLILI.....	1020
Valikulov Sherzod Zaynitdinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MARKETPLEYSLARNI SHAKLLANTIRISH: INVESTITSİYALAR, XARAJATLAR VA FOYDA.....	1029
Axmedova Dilshoda Xayrulla qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	1033
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Muminova Shahlo Madaminjon qizi	
OLIY TA'LIMDA GENDER TENGLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	1039
Xaydarova Sayyora	
ANALYZING THE COMPETITIVE ADVANTAGES OF SOUTH KOREA IN GLOBAL MICE TOURISM: HISTORICAL AND CULTURAL DIMENSIONS.....	1043
Ortikova Sabohat, Gulomova Mukhlisa, Ochilova Hilola Farmonovna	
MEHMONXONA BIZNESIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	1050
Usmanova Gulida Valiyevna	
ETHICAL ASPECTS OF ECOTOURISM: BALANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND MORAL RESPONSIBILITY.....	1055
Gulbakhor Sattarovna Abdullakhanova	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1062
Sobirov Abdurasul Abdugafarovich	



KADRLAR BOSHQARUVIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1068
Urazov Sadulla Shodiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY JINOYATLARNING OLDINI OLISHDA KOMPLAENS-AZORATNING ROLI.....	1074
Zokirov Ismoiljon Ibroximovich	
AGROSERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI	1078
Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Feruz Nematullayevich Abilov	
KO'MIR UCHUVCHI KULI ASOSIDAGI FLY ASH BETON VA GEOPOLIMER MATERIALLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN IQTISODIY VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	1083
Muradov Botir Xayat	
КРЕАТИВНАЯ ЭКОНОМИКА В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПРЕДПОСЫЛКИ В УЗБЕКИСТАНЕ	1091
Рахимова Манзура Хамид кизи	
DUE DILIGENCE IN AUDITING AS A FACTOR ECONOMIC EFFICIENCY IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	1098
Sidikov Dilmurod	
MAJBURIYATLAR HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1102
Ergasheva Vasila Abdumajitovna	
ИННОВАЦИОННЫЕ МАРКЕТИНГОВЫЕ СТРАТЕГИИ И ПРОЦЕССЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1106
Рахимова Тамила Баходур кизи	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1113
Abdusattarova Dildora Bohodirovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH BORASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1120
Djurayeva Lola Abdugabbarovna	
HUDUDLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA DAVLAT BUDJETIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1125
Egamnazarova Gulnoza Xolmurod qizi	
O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI ISTIQBOLIDA BARQAROR RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI HAMDA ESG INDIKATORLARINI JORIY ETISH	1129
Mirzaaxmedova Nodira Asqarali qizi, Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi	
O'ZBEKISTONDA KREDIT VA MOLIYAVIY TIZIMNI MODERNIZATSIYALASH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	1135
Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich	
O'ZBEKISTON FRANCHAYZING BRENDLARINING XALQARO BOZORLARDA IMIJINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY BRENDUKLAR YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY YECHIMLARI	1140
Xodjayev Anvar Rasulovich	
MINTAQANING INVESTITSIYA OQIMLARI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK TAHLILI	1147
G'oyibnazarov Muxammad Xamidbekovich	



MINTAQANING INVESTITSIYA OQIMLARI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK TAHLILI

G'oyibnazarov Muxammad Xamidbekovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Iqtisodiyot kafedrası mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0004-5435-5998

Email: muxammadgoyibnazarov@gmail.com

Annotatsiya. So'nggi yillarda mintaqalarning barqaror iqtisodiy rivojlanishida investitsiya oqimlari hamda tashqi iqtisodiy aloqalar muhim strategik omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda hududning iqtisodiy salohiyatini oshirishning asosiy moliyaviy manbai hisoblanadi. Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy aloqalar eksport-import operatsiyalari orqali mintaqaning jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashuv darajasini ifodalaydi hamda uning raqobatbardoshligini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda mintaqaning investitsiya oqimlari va tashqi iqtisodiy aloqalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ekonometrik modellashirish usullari asosida kompleks tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida korrelyatsion tahlil, ko'p omilli regressiya modeli hamda vaqt qatorlari asosida prognozlash usullari qo'llanildi. Ekonometrik modelga yalpi hududiy mahsulot, eksport va import hajmi, inflyatsiya darajasi, valyuta kursi hamda investitsiya ko'rsatkichlari kabi muhim makroiqtisodiy omillar kiritildi. Tadqiqot natijalari mintaqaviy iqtisodiy siyosatni shakllantirish, investitsiya muhitini takomillashtirish va tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali boshqarish bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: investitsiya oqimlari, tashqi iqtisodiy aloqalar, eksport, import, ekonometrik model, regressiya tahlili, korrelyatsiya, prognozlash.

Abstract. In recent years, investment flows and external economic relations have emerged as important strategic factors in ensuring sustainable regional economic development. Investments serve as the main financial source for expanding production capacity, modernizing infrastructure, introducing new technologies, and enhancing the economic potential of a region. At the same time, external economic relations, through export-import operations, reflect the level of a region's integration into the global economic system and represent one of the key indicators of its competitiveness. This study provides a comprehensive analysis of the relationship between regional investment flows and external economic relations based on econometric modeling methods. The research employs correlation analysis, a multiple regression model, and time-series forecasting techniques. The econometric model incorporates key macroeconomic indicators such as gross regional product, export and import volumes, inflation rate, exchange rate, and investment indicators. The findings offer scientifically grounded practical recommendations for shaping regional economic policy, improving the investment climate, and enhancing the effective management of external economic activities.

Key words: investment flows, external economic relations, export, import, econometric model, regression analysis, correlation, forecasting.

Аннотация. В последние годы инвестиционные потоки и внешнеэкономические связи выступают в качестве важных стратегических факторов устойчивого экономического развития регионов. Инвестиции являются основным финансовым источником расширения производственных мощностей, модернизации инфраструктуры, внедрения новых технологий и повышения экономического потенциала территории. В то же время внешнеэкономические связи через экспортно-импортные операции отражают уровень интеграции региона в мировую хозяйственную систему и выступают одним из ключевых показателей его конкурентоспособности. В данном исследовании взаимосвязь между инвестиционными потоками и внешнеэкономическими связями региона комплексно проанализирована на основе методов эконометрического моделирования. В процессе исследования были применены корреляционный анализ, многофакторная регрессионная модель и методы прогнозирования на основе временных рядов. В эконометрическую модель включены такие важные макроэкономические показатели, как валовой региональный продукт, объем экспорта и импорта, уровень инфляции, валютный курс и инвестиционные показатели. Результаты исследования позволяют разработать научно обоснованные практические рекомендации по формированию региональной экономической политики, совершенствованию инвестиционного климата и эффективному управлению внешнеэкономической деятельностью.

Ключевые слова: инвестиционные потоки, внешнеэкономические связи, экспорт, импорт, эконометрическая модель, регрессионный анализ, корреляция, прогнозирование.



KIRISH

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlari chuqurlashib borayotgan sharoitda mintaqalarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda investitsiya oqimlari hamda tashqi iqtisodiy aloqalar hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahon iqtisodiyotida raqobatning kuchayib borishi hududlardan iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishni talab etadi. Bu jarayonlarda investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy moliyaviy manbai sifatida muhim ahamiyat kasb etadi¹.

Investitsiya oqimlari iqtisodiyotda ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda infratuzilmani modernizatsiya qilishning asosiy vositasi hisoblanadi. Ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hududning sanoat rivojlanishi, yangi ish o'rinlari yaratish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Investitsiyalarning ortishi ishlab chiqarish hajmining kengayishiga, ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishiga hamda iqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy aloqalar mintaqa iqtisodiyotining jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashuvini ta'minlovchi muhim mexanizm hisoblanadi. Tashqi savdo operatsiyalari, ya'ni eksport va import hajmlarining oshishi hudud iqtisodiy faoliyatining xalqaro darajada kengayishiga olib keladi. Eksportning rivojlanishi milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirsa, import esa zamonaviy texnologiyalar, uskunalar va innovatsiyalar kirib kelishini ta'minlaydi. Natijada iqtisodiy o'sish sur'atlari tezlashadi hamda mintaqaning iqtisodiy salohiyati mustahkamlanadi.

Mintaqaning iqtisodiy barqarorligi ko'p jihatdan investitsiyalar jalb etilish darajasi hamda tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligiga bog'liqdir. Investitsiyalar ko'paygan sari ishlab chiqarish hajmi ortadi, bu esa eksport salohiyatining kengayishiga olib keladi. O'z navbatida, tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi yangi investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay muhit yaratadi. Shu sababli investitsiya oqimlari va tashqi iqtisodiy aloqalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ikki tomonlama va uzviy xarakterga ega bo'lib, ularni kompleks ravishda tahlil qilish zarur hisoblanadi.

Bugungi kunda iqtisodiy jarayonlarni chuqur o'rganish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda zamonaviy iqtisodiy tahlil metodlarining roli ortib bormoqda. Ayniqsa, ekonometrik modellashirish usullari investitsiya oqimlari hamda tashqi iqtisodiy aloqalar o'rtasidagi miqdoriy va funksional bog'liqlikni aniqlashda muhim ilmiy vosita hisoblanadi. Ushbu usullar yordamida omillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir darajasini baholash, ularning iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniqlash hamda kelgusidagi rivojlanish tendensiyalarini prognozlash imkoniyati mavjud.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning dolzarbligi mintaqaning investitsiya oqimlari va tashqi iqtisodiy aloqalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ekonometrik usullar asosida kompleks tahlil qilish, ushbu jarayonlarning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi mintaqaning investitsiya oqimlari va tashqi iqtisodiy aloqalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ekonometrik modellashirish asosida kompleks tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida investitsiyalar hajmining eksport-import ko'rsatkichlariga ta'siri aniqlanib, ular o'rtasidagi funksional munosabatlar baholandi hamda kelgusidagi rivojlanish tendensiyalari prognoz qilindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- investitsiya oqimlari va tashqi iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi miqdoriy bog'liqlik ekonometrik modellashirish asosida aniqlangan;
- investitsiyalarning tashqi iqtisodiy faoliyat rivojiga ta'sir darajasi statistik jihatdan baholangan;
- investitsiya oqimlari va tashqi savdo ko'rsatkichlari o'rtasidagi regressiya modeli ishlab chiqilgan;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqaning investitsiya oqimlari va tashqi iqtisodiy aloqalari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish iqtisodiy rivojlanish nazariyasi, xalqaro savdo modellari hamda makroiqtisodiy muvozanat konsepsiyalariga tayanadi. Michael P. Todaro va Stephen C. Smithning 2015-yilda nashr etilgan *Economic Development* asarida investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida talqin qilinadi. Mualliflar kapital jamg'arilishi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va tashqi savdo kengayishi rivojlanayotgan hududlarda strukturaviy o'zgarishlarni tezlashtirishini asoslaydi.

1 Todaro M.P., Smith S.C. *Economic Development*. — Pearson Education, 2015. — 870 p.



Paul R. Krugman, Maurice Obstfeld va Marc J. Melitzning 2018-yilda chop etilgan *International Economics: Theory and Policy* asarida xalqaro savdo va kapital harakati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yangi savdo nazariyasi doirasida tahlil qilinadi. Mualliflar investitsiya oqimlari va savdo integratsiyasi o'zaro kuchaytiruvchi mexanizmga ega ekanini, miqyos samarasi va ishlab chiqarish differensiallashuvi tashqi iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirishini ko'rsatadi.

Olivier Blanchardning 2017-yilda nashr etilgan *Macroeconomics* asarida ochiq iqtisodiyot modeli asosida investitsiyalar, foiz stavkalari va savdo balansi o'rtasidagi makroiqtisodiy bog'liqlik tahlil qilingan. Muallif kapital harakati va tashqi sektor o'zgarishlari milliy daromad hamda umumiy iqtisodiy muvozanatga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi.

Empirik tahlil metodologiyasi bo'yicha Damodar N. Gujarati 2015-yilda chop etgan *Basic Econometrics* hamda Jeffrey M. Wooldridge 2020-yilda nashr etgan *Introductory Econometrics: A Modern Approach* asarlarida regressiya tahlili, vaqt qatorlari, kointegratsiya va sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash usullari batafsil bayon etilgan. Ushbu yondashuvlar investitsiya oqimlari va tashqi savdo ko'rsatkichlari o'rtasidagi uzoq muddatli hamda qisqa muddatli bog'liqlikni aniqlashda nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Statistik ma'lumotlar manbasi sifatida Jahon bankining 2025-yil holatiga yangilangan World Bank Data platformasi investitsiyalar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, tashqi savdo aylanmasi va yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlari bo'yicha ishonchli ma'lumotlarni taqdim etadi. Ushbu baza mintaqaviy kesimda dinamik tahlil o'tkazish imkonini beradi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar investitsiya oqimlari va tashqi iqtisodiy aloqalar o'rtasida ko'p omilli, barqaror va ikki tomonlama bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Nazariy manbalar kapital va savdo integratsiyasini iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida asoslab bersa, zamonaviy ekonometrik yondashuvlar ushbu bog'liqlikni mintaqaviy darajada empirik jihatdan baholash imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot mintaqaning investitsiya oqimlari va tashqi iqtisodiy aloqalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda miqdoriy tahlil usullariga asoslangan ekonometrik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi iqtisodiy jarayonlarni kompleks baholash hamda omillar o'rtasidagi funksional munosabatlarni aniqlash imkonini beruvchi zamonaviy statistik va matematik usullar majmuasini o'z ichiga oladi.

Birinchidan, korrelyatsion tahlil yordamida investitsiya oqimlari va tashqi savdo ko'rsatkichlari (eksport va import hajmlari) o'rtasidagi bog'liqlik darajasi aniqlandi. Ushbu usul orqali omillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchi va yo'nalishi baholanib, ularning iqtisodiy jarayonlarga ta'siri statistik jihatdan aniqlashtirildi.

Ikkinchidan, investitsiyalarning tashqi iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini baholash maqsadida ko'p omilli regressiya modeli tuzildi. Model tarkibiga investitsiya hajmi, eksport va import ko'rsatkichlari, yalpi hududiy mahsulot, inflyatsiya darajasi hamda valyuta kursi kabi asosiy makroiqtisodiy omillar kiritildi. Ushbu model yordamida investitsiya oqimlarining tashqi savdo dinamikasiga ta'siri miqdoriy jihatdan baholandi hamda omillar o'rtasidagi funksional bog'liqlik aniqlab berildi.

Uchinchidan, kelgusidagi rivojlanish tendensiyalarini aniqlash maqsadida vaqt qatorlari asosida prognozlash usullari qo'llanildi. Bu usul yordamida investitsiya oqimlari va tashqi savdo ko'rsatkichlarining kelajakdagi o'zgarish dinamikasi baholanib, iqtisodiy rivojlanish istiqbollari aniqlashtirildi.

Tadqiqotda 2018–2024-yillarga oid rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Ma'lumotlar tahlil jarayonida dastlab tizimlashtirildi, so'ngra statistik tekshiruvdan o'tkazilib, ekonometrik model parametrlarini aniqlash uchun qayta ishlangan holda qo'llanildi. Natijada investitsiya oqimlari va tashqi iqtisodiy aloqalar o'rtasidagi miqdoriy hamda funksional bog'liqlik darajasi aniqlanib, mintaqaning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar kompleks baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari investitsiya oqimlari va tashqi iqtisodiy aloqalar o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Investitsiyalar hajmining ortishi ishlab chiqarish hajmining kengayishiga, bu esa eksport salohiyatining oshishiga olib kelishi aniqlandi.

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, investitsiyalar va eksport o'rtasidagi bog'liqlik yuqori darajada ekanligi aniqlandi (1-rasm).

Investitsiya oqimlari va eksport hajmi dinamikasi



1-rasm. Investitsiya oqimlari va eksport hajmi dinamikasi²

Prognoz tahlillari kelgusida investitsiya oqimlarining ortishi tashqi iqtisodiy aloqalarning yanada rivojlanishiga olib kelishini ko'rsatdi. Investitsiyalar o'sishi logistika infratuzilmasining rivojlanishi, ishlab chiqarish samaradorligining ortishi va eksport salohiyatining kengayishiga xizmat qilishi aniqlandi (2-rasm).

Investitsiyalar va tashqi savdo o'rtasidagi bog'liqlik modeli



2-rasm. Investitsiyalar va tashqi savdo o'rtasidagi bog'liqlik modeli³

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari mintaqada investitsiya oqimlari va tashqi iqtisodiy aloqalar o'rtasida barqaror hamda uzviy bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi. O'tkazilgan ekonometrik tahlillar investitsiyalar hajmining ortishi ishlab chiqarish faoliyatining kengayishiga, eksport salohiyatining oshishiga hamda tashqi savdo aylanmasining barqaror o'sishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Shuningdek, investitsiya oqimlarining ko'payishi logistika

² Muallif ishlanmasi
³ Muallif ishlanmasi



infratuzilmasining rivojlanishi, zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish orqali mintaqaning jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashuv darajasini kuchaytirishi aniqlandi. Natijada iqtisodiy barqarorlik mustahkamlanib, tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligi ortadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

— mintaqalarda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, investorlar uchun huquqiy kafolatlar va qulay iqtisodiy sharoitlarni kengaytirish;

— eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni davlat tomonidan rag'batlantirish hamda yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash;

— transport, logistika va sanoat infratuzilmasini modernizatsiya qilish orqali tashqi savdo samaradorligini oshirish;

— to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish hamda investitsiya risklarini kamaytirish choralarini kuchaytirish;

— iqtisodiy prognozlash va strategik rejalashtirish tizimini rivojlantirish orqali investitsiya va tashqi savdo siyosatini ilmiy asosda boshqarish.

Umuman olganda, investitsiya oqimlarini faol jalb etish va tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish mintaqaning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Todaro M.P., Smith S.C. Economic Development. — Pearson Education, 2015. — 870 p.
2. Krugman P., Obstfeld M., Melitz M. International Economics: Theory and Policy. — Pearson, 2018. — 784 p.
3. Blanchard O. Macroeconomics. — Pearson, 2017. — 622 p.
4. Gujarati D. Basic Econometrics. — McGraw-Hill, 2015. — 932 p.
5. Wooldridge J. Introductory Econometrics: A Modern Approach. — Cengage Learning, 2020. — 890 p.
6. Asad o'g'li, R. D. (2025). DEMOKRATIK VA HUQUQIY JAMIYATNI MA'NAVIY-AXLOHIY VA MADANIY INNOVATSION RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLI. Global Trends in Science and Innovation, 1(1), 104-109.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5598-sonli Farmon // <https://lex.uz/docs/-4103415>
8. Asad o'g'li, R. D. (2025). MINTAQADA SANOAT KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING SOLISHTIRMA EKONOMETRIK MODELLARI. Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, 49(1), 323-326.
9. Marketing strategiyasi va raqobat sharoitida uning rivojlanishi — M. Kutbitdinova & D. Matrizayeva maqolasi. Marketing strategiyasi: raqobatchilik sharoitida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirilishi
10. <https://www.mindtools.com/a3mi00v/swot-analysis>.
11. Asad o'g'li, R. D. (2025). Mintaqada sanoat ishlab chiqarishning baholash omillari. Journal of new century innovations, 89(2), 103-105.
12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik ma'lumotlari. — www.cbu.uz
13. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. — www.stat.uz
14. World Bank Data. — <https://data.worldbank.org>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
